



**BOSHLANG`ICH TA`LIMDA EKOLOGIK BILIMLARNI
O`RGATISHDA KREATIV MALAKA VA KO`NIKMADAN
FOYDALANISH**

*Chirchiq davlat pedagogika Universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich talabalari*

Eshmanova Bahor Alisher qizi

Jumayeva Ruhshonabonu Zafar qizi

Muxtorova Elinora Habibullo qizi

Abdug`afforova Mahbuba Sherzod qizi

Ilmiy rahbar : Raximova Nuquljon Yusupovna

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda ekologik bilimlar bolalarga atrof-muhitni tushunishga yordam beradi hamda tabiiy resurslarni saqlashga oid mas'uliyatni rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, tabiat, jamiyat, inson, tabiiy fan, ekologiya, madaniyat, tafakkur, kreativ, tushunchalar, ekologik madaniyat, estetik hissiyot, malaka, kompetentlik, o'quvchi, ko'rgazmalilik, mashg'ulot, atrof-muhit, "Ekonur", yondoshuv

Annotation: In primary education, environmental knowledge helps children to understand the environment and develops responsibility for the conservation of natural resources.

Keywords: Primary education, nature, society, human, natural science, ecology, culture, thinking, creative, concepts, ecological culture, aesthetic feeling, skills, competence, student, demonstration, training, environment, "Ekonur", approach.

Аннотация: Экологические знания в начальном образовании помогают детям понять окружающую среду и развивают ответственность за сохранение природных ресурсов.



Ключевые слова: Начальное образование, природа, общество, человек, естествознание, экология, культура, мышление, творчество, понятия, экологическая культура, эстетическое чувство, компетентность, компетентность, ученик, эксгибиционизм, обучающая нация, среда, «Эконур», подход.

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish global muammolardan biri bo`lib bormoqda. Dunyoda ham insonlarga ekologik barqaror hayot sharoitini yaratish har bir davlatning siyosatini ustuvor yo`nalishiga aylandi. Jumladan yurtimizda ham tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ko`pgina amaliy ishlar yo`lga qo`yilmoqda. Buning yaqqol misoli 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyat yili” deb nomlanishi ham bejiz emas aslida. Tabiatni asrashni uni muhofaza qilishni boshlang`ich ta`lim o`quvchilaridan kichikligidan boshlab o`rgatishimiz lozim.

Boshlang`ich ta`limda ekologik bilimlarni oshirish, bolalarning atrof-muhit bilan aloqasini kuchaytiradi va ularni tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga o`rgatadi. Ushbu jarayon, ekologik ongni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, o`quv dasturlarini ekologik jihatlarni inobatga olib takomillashtirish zarur. Yana shuni ta`kidlash kerakki, faol ta`lim metodlari, masalan, loyiha asosidagi o`qitish yoki o`yinlar orqali bolalar o`z tajribalarini oshirishlari mumkin. Shunday qilib, o`quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo`llash imkoniyati oshadi. Shuningdek, o`quvchilarga atrof-muhitni himoya qilishning muhimligi xususida ma'lumot berish, ularni ekotizimning ahamiyati bilan tanishtirish kerak. Maktablarda ekologik klublar yoki chiqindilarni ajratib yig`ish kabi tadbirlarni o`tkazish, bolalarning faolligini oshiradi. Bolalar o`zlarining harakatlari va qarorlarining sahobatlarini tushunish orqali, ularni kelajakda barqaror rivojlanishga olib boradi. Shuningdek, jamiyatning ekologik masalalariga qiziqishini oshiradi. Natijada, boshlang`ich ta`limda ekologik bilimlarni oshirish, yosh avlodni tabiatni sevishga va ularni muhofaza qilishga o`rgatadi. Bu esa kelajakda barqaror jamiyat va sog'lom ekosistema yaratishga zamin tayyorlaydi.



Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga tabiatni muhofaza qilishni o'rgatishda kreativ yondashgan holda darslarda ko'rgazmalilikdan foydalanishi hamda ART texnologiyalar orqali bolalarda tabiatga bo'lgan mehrini uyg'otishdan boshlanadi.

O'zbekistonning turli-timan hududlarida(viloyat,shahar, qishloqlarida) hasharlar, marafonlar, "toza yo'lak" aksiyalari, "yashil makon" loyihalari butun yurtimiz yosh qarisini e'tiborsiz qoldirmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishning shakl, metod va vositalarini ishlab chiqishda quyidagi ish turlarini bajarishni talab etadi:

1. ekologik ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligi;
2. darslarni tashkil qilishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
3. fanlararo integratsiya ekologik ta'lim-tarbiya asosi ekanligi;
4. muammoli vaziyat yaratish;
5. test sinovlarini o'tkazish;
6. ekologik ta'lim-tarbiya mazmunida mashq bajarish va masalalar yechish, test, diktant, insho va bayon yozish;
7. ekologik tarbiya mazmunida qiziqarli o'yinlar: krossvord, rebus va ijodiy topshiriqlarni bajarish;
8. darslik bilan ishlash.

Tabiat xilma-xil va go'zal, tabiat va inson bir butun. Tabiat jonli va jonsiz tabiatga ajraladi. Jonli tabiat bu-o'simliklar, hayvonlar, odamlar. Jonsiz tabiatga esa tuproq, suv, havo, foydali qazilma va hokazolar kiradi. Shuningdek, tabiatda barcha narsa, ya'ni jonli va jonsiz tabiat o'zaro bog'langan bir butundir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatning buzilishi ekologik muammolarni yuzaga keltirdi. Ya'ni inson tabiatga ziyon yetkazsa, uni muhofaza qilmasa, tabiatda ekologik zanjirlar buzilib ketadi. O'simliklar bilan hayvonlarning birgalikda yashaydigan guruhlar ekologik zanjirni hosil qiladi. Tabiatda bunday ekologik zanjirlar hamma joyda bor. Agar ekologik zanjir buzilsa, tabiat ekologik



halokat qurshovida qoladi. Inson ona-tabiatning bir bo‘lagi bo‘lib, jonli va jonsiz tabiatni muhofaza qilishi va ekologik muammolar oldini olishi shart. Ekologik muammolar yechimini birgalikda izlashni unutmaslik kerak. Xulq-atvorning ekologik madaniyati bu bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar estetik tarbiya asosida shakllantirilib, o‘quvchilarda tirik mavjudotlarga hamdard bo‘lishni o‘rgatish, tirik mavjudotga zarar yetkazmaslik, o‘simlik va hayvonlarni nobud qilmaslik, tabiat yaratgan narsani yo‘q qilishga haqqimiz yo‘qligini anglatish shart.

Xulosa:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish mazmunidagi materiallarni tanlash tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarda ziyraklik, mustaqillik, ijtimoiy foydali va unumli mehnatni sevish kabi sifatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, o‘z o‘lkasi ekologiyasiga nisbatan hurmat hissi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun eng avvalo qo‘shimcha ekologik ta‘lim tizimini rivojlanishidagi yetakchi bosqichlarni tahlil qilish va modellashtirishning umumiy yondashuvlarini ko‘rib chiqishni talab etadi. Ekologik bilimlar orqali bolalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni himoya qilishni o‘rganadilar. O‘rganish jarayonida faol metodlarning qo‘llanilishi, bolalarning fikrlarni erkin ifoda etishlari va amaliy tajribalar orttirishlariga imkon yaratadi. Ekologik tadbirlar, loyihalar va o‘yinlar orqali bolalar o‘zlarining tabiiy muhitlarini saqlash va rivojlantirishda ishtirok etishlarini o‘rganadilar. Shu tariqa, boshlang‘ich ta‘limda ekologik bilimlarni oshirish, nafaqat bolalarning ekologik ongini shakllantiradi, balki ularning kelajakka qarab faol va mas‘uliyatli fuqarolar bo‘lib yetishishlariga ham xizmat qiladi. Bu esa jamiyat va ekosistema barqarorligini ta‘minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Камышникова Ю.С. Глобализм и современные экологические проблемы. Автореф. канд. филос. наук.-Санкт-Петербург, -2006 .
2. Малозёмова И.И. Развитие направлений экологического образования в современном ВУЗе.// Международная научно-практическая конференция



«Биологическое и экологическое образование в школе и ВУЗе. Теория, методика, практика». 2017. -С. 127-131.

3. Степанов С. А. Экологическое образование для устойчивого развития как важное направление модернизации высшей школы России. //Автореф.дисс. докт. пед. наук. -М., 2011. -57 с.

4. Ягодин Г.А. Некоторые аспекты экологического образования в школе. Развитие непрерывного экологического образования. // Материалы 1-й Москов. науч-практ. конф. по ЭО. М. МНЭПУ. 1995.-С. 26-29.

5. Norbo'tayev X.B. Maktab o'quvchilarida ekologik tafakkurni tabiiy fanlararo sinxron va asinxron aloqadorlikda rivojlantirish metodikasi (biologiya, kimyo, fizika o'quv fanlari misolida). Monografiya. -Toshkent: "Yangi nashr", 2019. -114 b.

6. Saydamatov F.R. Maktab geografiya ta'limida ekologik o'lkashunoslik vositasida o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref.- Chirchiq, 2021. - 45 b.